

MEDIATA'LIM VA MEDIAMUHITNING TA'LIM SIFATIGA TA'SIRI

To'xtayeva Shoxista Bobanazorovna

Samarqand viloyat Pastdarg`om tumanida joylashgan
47-maktabning Boshlang`ich sinf o`qituvchisi

Annotasiya

Mazkur maqolada zamonaviy mediamuhit sharoitida mediata'lismni tashkil etishga doir bo`lgan masalalar tahlil qilingan. Mediamadaniyat tsuhunchasiga ta'rif berilgan. Axborotlashgan jamiyatda axborot uzatish va uni qabul qilishning axloqiy me`yorlari to`g`risida bayon qilingan. Mediata'linda kibermakon va virtual reallik mediamuhitning bir qismi ekanligi asoslab berilgan. O`quvchi yoshlarning mediata'lim olishida ularning mediamadaniyatini oshirishning dolzarbligi muhokama qilingan. Mediamadaniyatni shakllantirishning bugungi kundagi dolzarbligi haqida qisqacha fikr yuritilgan.

Kalit so`zlar: media, mediamuhit, mediata'lim, mediamadaniyat, virtuallik, axloqiy degradatsiya, informosfera.

Zamonaviy dunyoning birlamchi elementi sifatida internet, axborot texnologiyalari vositasida tayyorlangan va ishlab chiqarilgan mediamateriallar bugungi kun kishisining hayotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Turli g`oy ava bilimlarning globallashuvi bilan bir qatorda kasallik hamda epidemiyalarning ham ommalshuvi kuzatilmoqda. Ana shunday sharoitda zamonaviy mediamuhitda mediata'lismni tashkil etish o`z dolzarbligini ko`rsatib qo`ydi.

Shuni alohida ta'kidlashimiz kerakki, mediamuhit odamlarining huquq va majburiyatları ko`plab xalqaro qonunlar bilan belgilab qo`yilgan. 1948-yil 10-dekabr sanasida qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida aytlishicha: «Har bir inson fikrlar erkinligiga va ularni erkin ifodalash huquqiga ega; ushbu huquq o`z e'tiqodiga erkin rioya qilish erkinligini va har qanday usullar bilan hamda davlat chegaralaridan qat'i nazar, ma'lumot va g'oyalarni izlash, olish va tarqatish erkinligini o`z ichiga oladi»¹.

Media va axboriy savodxonlik insonlarni, yuqorida aytib o'tilgan fundamental huquqni to`laqonli amalga oshirish uchun zarur bo`lgan bilim va ko`nikmalar bilan qurollantiradi. Ushbu huquqning amalga oshirilishi 1982 yilda qabul qilingan Mediashakllantirish bo'yicha Gryunvald deklaratsiyasi bilan belgilanib, unda siyosiy va ta'lif tizimlar fuqarolarda kommunikatsiya fenomenining kerakli

¹ Media va axboriy savodxonlik bo`yicha muammoli\tarbiyasi og`ir yoshlar toifasi bilan ishslash uchun uslubiy qo`llanma. –Bishkek.: 2011. 11 b

tushunchasini rivojlantirishlari va ularning ommaviy axborot vositalari (ham yangi, ham eskilari)dagi ishtirogini rag'batlantirishlari lozim.

Maklyanning "Mediani tushunish" kitobida muhokama qilingan

kommunikatsiya vositalari birgina axborot texnologiyalari emas. Bu yerda olimlar elektr nuri, nutq, yozuv, yo'llar, raqamlar, kiyim-kechak, uy-joy, shahar, pul, soatlar, matbaa, komikslar, kitoblar, reklama, g`ildiraklar, transport vositalari (velosiped, mashina, samolyot), avtomatik uskunalar, fotosuratlar, o`yinlar, matbuot, telegraf, yozuv mashinasi, telefon, fonograf, kino, radio, televizor, qurolyarog` „va boshqa ko`p narsalarni kiritadilar².

An'anaviy ma'noda mediamadaniyat audiovizual ijodkorlikning barcha turlarini birlashtiradi. Zamonaviy sivilizatsiya sharoitida audiovizual ma'lumotlarning ko'pqirraliligin J. Bodrillard, P. Virilio, F. Jeymson ta'kidladilar. Ularning fikriga ko'ra, mediamadaniyat – bu tasvir va tovushlarni yozib olish va uzatishning zamonaviy texnik usullari (kino, televizion, video, multimedia tizimlari) bilan keng tarqalgan dinamik tasvirlarni uzatish bilan bog'liq madaniyat sohasi. Ushbu atama kulturologik nazariyada bir necha yil oldin qo'llanila boshlangan, ammo hali ensiklopedik maqomga ega bo`lmagan tushunchadir.

O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab jahonning rivojlangan davlatlarining pedagogika fanida "Mediata'lim" (Mediaeducation) nomini olgan o'ziga xos bir yo'nalish yuzaga keldi. Yangilik kasb etgan ushbu pedagogik fanning asosiy maqsadi o'quvchi va talabalarda ular uchun yangi bo'lgan tushuncha—Mediamadaniyatni shakllantirish, OAV tilini yaxshi bilish va o'zlashtirish, behisob zamonaviy mediavositalar orqali kelayotgan axborotni ya'ni mediamatnni tahlil qila olish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat bo'ldi.

Xalqaro UNESCO tashkiloti 1982-yildan boshlab o'zining qator rezolyutsiya va tavsiyalari orqali Mediata'limning insoniyat keljagi uchun ahamiyatiga urg'u berib, har tomonlama qo'llab-quvvatlashini bildirib kelmoqda.

Jahondagi ta'lim amaliètida bu sohadagi izlanishlar o'tgan asrning 70-yillarida boshlangan va pedagogika fanida o'ziga xos yo'nalish –mediata'lim paydo bo'lib, shakllanib bormoqda.

Mediata'lim – media orqali beriladigan ta'limdir. «Media» televidenie, radio, kinematografiya, ommaviy axborot vositalari, kompyuter axborot tizimlarini o'z ichiga oladi³ deyiladi internet tarmog'ida mavjud ma'lumotlarda.

Hozirda mamlakatimizda ham mediata'limga alohida e'tibor qaratilmoqda. Butun jahonda globallashuv jarayonlari jadal tus olgan bugungi kunda zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari mamlakatimizda ta'lim sohasini yanada takomillashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi kunda

² Понимание медиа. М.; Жуковский, 2003.

³ 1. <http://uforum.uz/showthread.php?t=2919>

mamlakatimizdagi deyarli barcha ta'lif muassasalari kompyuterlar, mediata'lif uchun xizmat qiladigan dasturlar ko'payib kelmoqda. Demak, undan ta'lif sohasini yanada takomillashtirishda ham samarali foydalanish davr talabidir.

Mediamadaniyatni shakklantiruvchi omillar va tamoyillarga to`xtaladigan bo`lsak, bunda brinchi galda axborot olish va uni qayta ishlash masalasiga alohida to`xtalib o`tishimiz lozimdir. Avvalo, axborotni qabul qiluvchi uni qaysi manbadan va qay holatda olganligiga va uni qay maqsadda ishlatishiga qarab turlarga bo`lishimiz mumkin. Madaniyat va ma'naviyatning ahamiyati aynan mana shu yerda yaqqol bilina boshlaydi. Madaniyat aslida insonning zohiri bilan qisman esa botini bilan bog`liq bo`lgan tushuncha hisoblanadi. Ma'naviyat esa bilgan va o`rgangan bilimlariga amal qilishi va uni to`g`ri yo`lda ishlata bilishidir. Bu borada ma'naviyat insonparvarlik bilan oziqlanmog`i zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Media va axboriy savodxonlik bo`yicha muammoli\tarbiyasi og`ir yoshlar toifasi bilan ishlash uchun uslubiy qo`llanma. –Bishkek.: 2011. 11 b
2. Понимание медиа. М.; Жуковский, 2003.
3. <http://uforum.uz/showthread.php?t=2919>